
Tashqi yozuvlarni tartibga solishga doir nazorat tadbirlari olib borilmoqda

O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-fevral kungi "Tashqi reklama bozorini tartibga solish to'g'risida"gi 104-son qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston tumanidagi nazorat tadbirlarida hududdagi tashqi yozuvlar, xususan peshlavha, reklama, e'lon va boshqa axborot matnlarining davlat tilida, xatolarsiz yozilganlik holatlarini o'rganish ishlari davom etmoqda.

Tuman hokimining davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchisi va mutasaddi idoralar hamkorligida xorijiy tillarda yozib tayyorlangan tashqi yozuvlar egalari - tadbirkorlik subektlari bilan belgilangan tartibda tushuntirish ishlari olib borilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilyapti.

2025-02-11 14:17:30